SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI




2024-yil yanvar-may

*Dastlabki ma’lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

*(2024-yil yanvar-may)*



**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi – 63,2 %**



**Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi – 3 030,8 ming so'm**



**Jami korxonalarda xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar ulushi – 76,1 %**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

## Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*(1-iyun holatiga ko‘ra)*

**Soni**, *birlikda*

| | |
|---|---|
| 2024-y. | 31 136 |
| 2023-y. | 31 750 |
| 2022-y. | 34 547 |
| 2021-y. | 28 027 |
| 2020-y. | 22 403 |




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*(yanvar-may)*




**Soni**, *birlikda*

| | |
|---|---|
| 2024-y. | 2 426 |
| 2023-y. | 2 622 |
| 2022-y. | 3 978 |
| 2021-y. | 2 363 |
| 2020-y. | 1 926 |

## Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

*(1-iyun holatiga ko‘ra)*

**Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi**

**2024-y.**




**2020-y.**




**Soni**, *birlikda*

| | |
|---|---|
| 2024-y. | 25 162 |
| 2023-y. | 25 928 |
| 2022-y. | 28 599 |
| 2021-y. | 22 279 |
| 2020-y. | 16 704 |

**Soni**, *birlikda*

| | |
|---|---|
| 2024-y. | 2 348 |
| 2023-y. | 2 544 |
| 2022-y. | 3 854 |
| 2021-y. | 2 281 |
| 2020-y. | 1 870 |

## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

*(yanvar-may)*

**Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi**

**2024-y.**




**2020-y.**



## Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi [1)]

*(yanvar-may)*




## Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘sishiga xizmat turlarining qo‘shgan hissasi

*(2024-yil yanvar-may)*




*[1)] Shu va keyingi o‘rinlarda 2020-2023-yillar ko‘rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko‘rib chiqilgan*

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

*(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar nomi | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | Ulushi, *%* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **12 783,6** | **100,0** | **113,0** |
| Samarqand sh. | 5 531,2 | 43,3 | 119,0 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 351,1 | 2,7 | 112,1 |
| | | | |
| Oqdaryo | 409,7 | 3,2 | 107,2 |
| Bulung‘ur | 341,9 | 2,7 | 107,3 |
| Jomboy | 516,7 | 4,0 | 107,1 |
| Ishtixon | 438,5 | 3,4 | 107,2 |
| Kattaqo‘rg‘on | 447,0 | 3,5 | 107,0 |
| Qo‘shrabot | 236,1 | 1,9 | 107,2 |
| Narpay | 388,5 | 3,0 | 106,7 |
| Payariq | 534,4 | 4,2 | 107,1 |
| Pastdarg‘om | 868,3 | 6,8 | 109,9 |
| Paxtachi | 240,6 | 1,9 | 106,5 |
| Samarqand | 868,3 | 6,8 | 116,3 |
| Nurobod | 245,6 | 1,9 | 107,5 |
| Urgut | 855,8 | 6,7 | 107,4 |
| Toyloq | 509,9 | 4,0 | 109,5 |

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma’lum vaqt davomida ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi) ni aks ettiradi.

# Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi *(yanvar-may)*




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi *(2024-yil yanvar-may)*

| | Hajmi, ming so‘mda | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 9 430,9 | 116,5 % |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 3 695,8 | 110,4 % |
| Samarqand | 3 174,8 | 113,9 % |
| Jomboy | 2 717,9 | 104,4 % |
| Oqdaryo | 2 358,8 | 104,7 % |
| Toyloq | 2 301,1 | 106,9 % |
| Pastdarg‘om | 2 260,5 | 107,5 % |
| Payariq | 1 950,3 | 104,6 % |
| Narpay | 1 705,4 | 104,8 % |
| Bulung‘ur | 1 688,6 | 104,9 % |
| Qo‘shrabot | 1 661,1 | 105,1 % |
| Ishtixon | 1 585,9 | 105,0 % |
| Paxtachi | 1 577,7 | 104,9 % |
| Urgut | 1 526,2 | 104,8 % |
| Kattaqo‘rg‘on | 1 518,2 | 104,9 % |
| Nurobod | 1 507,9 | 105,4 % |

## Xizmatlar sohasining turlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari

*(2024-yil yanvar-may)*

| Xizmat turlarining nomi | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | Ulushi, *%* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|---|
| **Xizmatlar – jami** | **12 783,6** | **100,0** | **113,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 660,7 | 5,2 | 116,9 |
| Moliyaviy xizmatlar | 2 159,8 | 16,9 | 112,3 |
| Transport xizmatlari | 2 861,9 | 22,4 | 111,0 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 2 562,9 | 20,0 | 110,0 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 672,0 | 5,3 | 110,9 |
| Savdo xizmatlari | 3 044,7 | 23,8 | 113,8 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 321,2 | 2,5 | 116,4 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 711,3 | 5,6 | 123,8 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 298,7 | 2,3 | 122,4 |
| Ijara xizmatlari | 382,1 | 3,0 | 111,4 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 384,4 | 3,0 | 108,9 |
| Shaxsiy xizmatlar | 591,3 | 4,6 | 108,7 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 195,2 | 1,5 | 116,0 |
| Boshqa xizmatlar | 500,3 | 3,9 | 106,8 |

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o‘tish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha xizmatlar bilan bog‘liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko‘ra muvofiqlashtirildi.

# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **89,6** foiz.

Samarqand shahrida transport xizmatlari hajmi **976,9** mlrd so‘mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati **117,2** foizni tashkil etgan.

## Transport xizmatlari dinamikasi

*(yanvar-may)*




## Hududlar kesimida transport xizmatlari

*(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 976,9 | 117,2 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 85,4 | 120,7 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 112,3 | 107,3 |
| Bulung‘ur | 80,7 | 107,1 |
| Jomboy | 151,3 | 107,7 |
| Ishtixon | 124,0 | 107,0 |
| Kattaqo‘rg‘on | 128,0 | 106,9 |
| Qo‘shrabot | 67,9 | 106,8 |
| Narpay | 120,4 | 107,6 |
| Payariq | 128,5 | 107,7 |
| Pastdarg‘om | 200,5 | 108,4 |
| Paxtachi | 68,8 | 106,8 |
| Samarqand | 217,5 | 108,1 |
| Nurobod | 58,2 | 106,6 |
| Urgut | 211,3 | 107,4 |
| Toyloq | 130,2 | 107,7 |

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi *(yanvar-may)*

**2024-yilning yanvar-may** oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 562,9** mlrd. so‘mga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **20,0** % ni tashkil etdi.




| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 713,2 | 111,3 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 83,7 | 122,6 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 111,5 | 108,8 |
| Bulung‘ur | 79,7 | 108,6 |
| Jomboy | 149,7 | 109,1 |
| Ishtixon | 122,8 | 108,5 |
| Kattaqo‘rg‘on | 125,4 | 108,3 |
| Qo‘shrabot | 65,9 | 108,1 |
| Narpay | 118,9 | 109,0 |
| Payariq | 125,3 | 109,2 |
| Pastdarg‘om | 196,0 | 109,4 |
| Paxtachi | 64,5 | 108,1 |
| Samarqand | 212,8 | 109,5 |
| Nurobod | 57,9 | 108,1 |
| Urgut | 207,3 | 108,9 |
| Toyloq | 128,3 | 109,2 |

## Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

*(2024-yil yanvar-may)*



**2024-yil yanvar-may** oylarida yo‘lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **73,3** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to‘g‘ri keladi – **70,3** %.

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

*(yanvar-may)*




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar *(2024-yil yanvar-may, mlrd. so‘mda)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 1 044,0 | 119,9 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 78,0 | 109,8 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 34,4 | 102,0 |
| Bulung‘ur | 58,2 | 101,3 |
| Jomboy | 68,8 | 110,7 |
| Ishtixon | 52,5 | 102,1 |
| Kattaqo‘rg‘on | 42,9 | 101,3 |
| Qo‘shrabot | 17,2 | 101,2 |
| Narpay | 32,4 | 101,2 |
| Payariq | 147,5 | 104,0 |
| Pastdarg‘om | 190,0 | 107,0 |
| Paxtachi | 22,9 | 101,5 |
| Samarqand | 40,9 | 103,8 |
| Nurobod | 35,2 | 101,6 |
| Urgut | 215,3 | 107,4 |
| Toyloq | 79,6 | 115,8 |

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

*(2024-yil yanvar-may)*




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug‘urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-mayida 93,4** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Samarqand shahrining ulushi **48,3** foizni yoki **1 044,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**2023-yil yanvar-may** oylariga nisbatan Samarqand shahrida yuqori o‘sish sur’ati **119,9** foizni tashkil etdi.

# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

**2024-yil yanvar-may** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to‘rtdan uch qismini, ya’ni **70,1** foizni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari dinamikasi

*(yanvar-may)*




## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

*(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 1 165,1 | 127,0 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 82,3 | 107,4 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 131,2 | 104,7 |
| Bulung‘ur | 88,3 | 108,7 |
| Jomboy | 151,2 | 101,3 |
| Ishtixon | 122,8 | 107,2 |
| Kattaqo‘rg‘on | 127,4 | 106,4 |
| Qo‘shrabot | 60,1 | 102,5 |
| Narpay | 102,3 | 101,3 |
| Payariq | 121,7 | 108,9 |
| Pastdarg‘om | 223,1 | 115,0 |
| Paxtachi | 57,0 | 100,7 |
| Samarqand | 248,0 | 110,5 |
| Nurobod | 59,4 | 109,9 |
| Urgut | 175,4 | 105,5 |
| Toyloq | 129,4 | 104,6 |




## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi

*(yanvar-may)*




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-may** oylaridagi ulushi **86,3** % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari *(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| **Samarqand sh.** | **208,4** | **132,4** |
| **Kattaqo‘rg‘on sh.** | **17,2** | **112,4** |
| ***tumanlar:*** | | |
| **Oqdaryo** | **24,1** | **110,1** |
| **Bulung‘ur** | **26,5** | **111,9** |
| **Jomboy** | **24,1** | **110,0** |
| **Ishtixon** | **32,1** | **107,6** |
| **Kattaqo‘rg‘on** | **33,7** | **106,9** |
| **Qo‘shrabot** | **17,2** | **115,2** |
| **Narpay** | **25,2** | **111,2** |
| **Payariq** | **35,4** | **109,7** |
| **Pastdarg‘om** | **46,3** | **109,1** |
| **Paxtachi** | **18,5** | **113,3** |
| **Samarqand** | **45,4** | **119,7** |
| **Nurobod** | **19,2** | **107,1** |
| **Urgut** | **59,9** | **109,6** |
| **Toyloq** | **27,5** | **113,1** |

## Ta’lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

*(yanvar-may)*




Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim soha-sidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-may** oylaridagi ulushi **71,9** foizni tashkil etdi.



**2024-yilning yanvar-may** oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **711,3** mlrd. so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **123,8** % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ta’lim sohasidagi xizmatlar

*(2024-yil yanvar-may, mlrd. so‘mda)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 593,7 | 125,3 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 9,4 | 119,9 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 14,3 | 121,5 |
| Bulung‘ur | 7,8 | 113,6 |
| Jomboy | 6,0 | 117,5 |
| Ishtixon | 8,5 | 111,7 |
| Kattaqo‘rg‘on | 7,0 | 115,7 |
| Qo‘shrabot | 3,7 | 116,1 |
| Narpay | 5,1 | 117,3 |
| Payariq | 7,4 | 115,0 |
| Pastdarg‘om | 12,3 | 115,0 |
| Paxtachi | 4,3 | 113,8 |
| Samarqand | 11,8 | 116,5 |
| Nurobod | 3,3 | 114,3 |
| Urgut | 10,4 | 116,2 |
| Toyloq | 6,3 | 117,1 |

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi *(yanvar-may)*

**2024-yilning yanvar-may** oylarida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi **298,7** mlrd. so‘mni yoki ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,3** % ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
*(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| **Samarqand sh.** | **208,7** | **129,3** |
| **Kattaqo‘rg‘on sh.** | **4,6** | **109,4** |
| ***tumanlar:*** | | |
| **Oqdaryo** | **4,1** | **107,7** |
| **Bulung‘ur** | **5,3** | **110,2** |
| **Jomboy** | **4,7** | **111,8** |
| **Ishtixon** | **4,4** | **106,8** |
| **Kattaqo‘rg‘on** | **8,3** | **109,3** |
| **Qo‘shrabot** | **2,5** | **106,8** |
| **Narpay** | **3,9** | **103,0** |
| **Payariq** | **4,6** | **105,1** |
| **Pastdarg‘om** | **9,6** | **116,5** |
| **Paxtachi** | **1,8** | **105,6** |
| **Samarqand** | **9,8** | **107,1** |
| **Nurobod** | **14,2** | **108,4** |
| **Urgut** | **8,2** | **109,4** |
| **Toyloq** | **4,0** | **106,9** |

## Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar dinamikasi

*(yanvar-may)*




Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo‘yicha xizmatlar **94,8** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar

*(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| **Samarqand sh.** | **121,3** | **123,0** |
| **Kattaqo‘rg‘on sh.** | **9,5** | **107,6** |
| ***tumanlar:*** | | |
| **Oqdaryo** | **10,1** | **113,1** |
| **Bulung‘ur** | **8,3** | **113,0** |
| **Jomboy** | **11,9** | **113,3** |
| **Ishtixon** | **11,7** | **112,6** |
| **Kattaqo‘rg‘on** | **12,8** | **111,8** |
| **Qo‘shrabot** | **8,1** | **112,8** |
| **Narpay** | **10,7** | **113,0** |
| **Payariq** | **10,3** | **113,0** |
| **Pastdarg‘om** | **22,5** | **113,7** |
| **Paxtachi** | **11,7** | **112,7** |
| **Samarqand** | **26,4** | **115,4** |
| **Nurobod** | **8,4** | **112,8** |
| **Urgut** | **25,5** | **110,5** |
| **Toyloq** | **12,0** | **113,3** |

**2024-yil yanvar-may** oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **5,3** % ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ustunlik qildi – **67,8** foiz.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar dinamikasi *(yanvar-may)*




## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
*(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 388,0 | 101,5 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 13,5 | 110,4 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 4,8 | 109,5 |
| Bulung‘ur | 10,8 | 103,4 |
| Jomboy | 11,4 | 110,6 |
| Ishtixon | 3,2 | 109,6 |
| Kattaqo‘rg‘on | 6,2 | 109,8 |
| Qo‘shrabot | 5,6 | 110,2 |
| Narpay | 6,4 | 109,1 |
| Payariq | 4,9 | 108,8 |
| Pastdarg‘om | 34,5 | 110,5 |
| Paxtachi | 5,0 | 110,0 |
| Samarqand | 125,9 | 159,3 |
| Nurobod | 6,3 | 110,5 |
| Urgut | 10,6 | 109,2 |
| Toyloq | 34,9 | 110,1 |

## Ijara xizmatlari dinamikasi

*(yanvar-may)*




## Hududlar kesimida ijara xizmatlari

*(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 100,4 | 114,9 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 11,0 | 110,5 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 20,4 | 110,7 |
| Bulung‘ur | 10,7 | 108,4 |
| Jomboy | 20,9 | 110,6 |
| Ishtixon | 18,9 | 109,3 |
| Kattaqo‘rg‘on | 18,3 | 108,9 |
| Qo‘shrabot | 13,2 | 110,1 |
| Narpay | 18,1 | 110,3 |
| Payariq | 17,9 | 109,6 |
| Pastdarg‘om | 32,2 | 111,6 |
| Paxtachi | 9,7 | 108,7 |
| Samarqand | 31,4 | 111,1 |
| Nurobod | 9,2 | 108,3 |
| Urgut | 29,9 | 109,7 |
| Toyloq | 19,9 | 110,4 |

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari dinamikasi

*(yanvar-may)*




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlarining **25,2** foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari *(2024-yil yanvar-may)*

| Hududlar | Hajmi, *mlrd. so‘mda* | O‘sish sur’ati, *%* |
|---|---|---|
| Samarqand sh. | 102,8 | 108,7 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 11,0 | 108,9 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 17,1 | 108,5 |
| Bulung‘ur | 11,6 | 108,6 |
| Jomboy | 20,5 | 109,0 |
| Ishtixon | 19,2 | 108,5 |
| Kattaqo‘rg‘on | 19,7 | 108,6 |
| Qo‘shrabot | 11,3 | 108,6 |
| Narpay | 18,4 | 109,1 |
| Payariq | 17,8 | 109,0 |
| Pastdarg‘om | 31,9 | 108,8 |
| Paxtachi | 10,1 | 108,1 |
| Samarqand | 33,5 | 110,1 |
| Nurobod | 9,2 | 108,0 |
| Urgut | 30,0 | 109,3 |
| Toyloq | 20,3 | 109,2 |

## Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi *(yanvar-may)*




**2020-yilning yanvar-may** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **91,6** mlrd. so‘mga oshib, **195,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlar uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmogʻi va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga oʻrgatishni oʻz ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga oʻxshash boshqalar kiradi.**Ta’lim sohasidagi faoliyat**ni amalga oshirishda masofaviy oʻqitish shaklini ham hisobga olgan holda koʻrsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sogʻliqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun koʻrsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash boʻyicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish boʻyicha qoʻyilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini oʻz ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash boʻyicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash boʻyicha koʻrsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini oʻz ichiga oladi.

**Koʻchmas mulk bilan bogʻliq xizmatlarni** koʻrsatishda koʻchmas mulk bilan bogʻliq operatsiyalar boʻyicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xoʻjalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan koʻchmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** boʻyicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash boʻyicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta’mirlash va texnik xizmat koʻrsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta’mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bogʻ uchun uskunalar (gazon oʻruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta’mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va koʻrsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini oʻz ichiga oladi.

**Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi** – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar boʻyicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

**Yuridik xizmatlar hajmi** fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati koʻrsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a’zolari boʻlgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlari narxini oʻz ichiga oladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi boʻlimi**
***Tel.: 66-235-79-35***